



ARAB TILIGA FRANSUZ TILIDAN KIRIB KELGAN
NEOLOGIZMLAR

Akmalova Munisa Kamolxon qizi

Oriental Universiteti

3-kurs talabasi

Tel: +998935475568

akmalovam2908@gmail.com

Ilmiy rahbar: Oriental Universiteti

Tillar I kafedrası o'qituvchisi

Abdullayeva Shahnoza

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy arab tili leksikasiga fransuz tilidan o'zlashgan neologizmlarning lisoniy tahliliga bag'ishlanadi. Tadqiqotda fransuz tilidan kirib kelgan birliklar muayyan semantik guruhlariga (madaniyat, texnika, maishiy turmush, siyosat) ajratilgan holda o'rganiladi. Maqolada neologizmlarning arab tili qonuniyatlariga ko'ra fonetik o'zgarishlarini misollar orqali yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada o'zlashma qatlamning arab tili so'z boyligini oshirishdagi roli va tilning ichki imkoniyatlari doirasida neologizmlarning barqarorlashuvi tahlil qilingan.

Kalit sozlar: leksika, semantik guruhlar, neologizmlar, til qonuniyatlari, so'z boyligi, o'zlashma so'zlar, leksik birliklar.

Abstract: This article is devoted to the linguistic analysis of neologisms borrowed from French into the modern Arabic lexicon. The study examines lexical units adopted from French by classifying them into specific semantic groups, including culture, technology, everyday life, and politics. The author illustrates, through examples, the phonetic transformations of these neologisms in accordance with the norms of the Arabic language. Furthermore, the article analyzes the role of borrowed vocabulary in enriching the Arabic lexicon and explores the stabilization of neologisms within the framework of the language's internal resources.



Key words: *lexicon, semantic groups, neologisms, linguistic norms, vocabulary enrichment.*

Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xalqlar va madaniyatlar bilan aloqada bo‘lgan. Shu sababli arab tili iqtiboslarga boy tillardan biri hisoblanadi. Iqtibos (arabcha: الاقتباس اللغوي) — bu bir tilga boshqa tildan so‘z yoki ma’no unsurlarining kirib kelish jarayonidir.

Arab tiliga kirgan o‘zlashma birliklar turli davrlarda turlicha tarixiy, siyosiy va madaniy omillar ta’sirida shakllangan. Jumladan:

- jahiliya davrida qo‘shni xalqlar bilan savdo aloqalari;
- islomiy fathlar davrida fors, yunon va suryoniy tillari ta’siri;
- abbosiylar davrida ilmiy tarjima harakati;
- zamonaviy davrda g‘arb tillarining texnologik va ilmiy ta’siri¹.

Zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri — tillararo leksik qatlamning o‘zgarishi va neologizmlarning shakllanish jarayonidir. **Neologizm** (yunoncha *neos* – yangi, *logos* – so‘z) tushunchasi tilda yangi paydo bo‘lgan yoki mavjud so‘zlarga yangi ma’no yuklangan lisoniy birliklarni anglatadi².

Neologizmlar jamiyatdagi texnologik taraqqiyot, madaniy evrilishlar va siyosiy o‘zgarishlarning bevosita mahsulidir. Arab tili o‘zining boy ichki derivatsion imkoniyatlariga ega bo‘lishiga qaramay, globalizatsiya sharoitida boshqa tillardan kirib kelayotgan neologizmlarni qabul qilish orqali o‘z lug‘at boyligini muntazam ravishda oshirib bormoqda.

Zamonaviy arab adabiy tili atamalar o‘zlashtirishda ikki manbaga tayanadi. Bular birinchi navbatda, klassik tildan, ya’ni XVIII-XIX asrlardan to Yevropa bosqinchiligiga qadar qabul qilingan dastlabki o‘zlashmalar.

Ikkinchi manba esa zamonaviy Yevropa tillaridan olingan so‘nggi o‘zlashma so‘zlar. Mazkur o‘zlashgan so‘z guruhleri nafaqat o‘zlashtirilgan vaqti, balki manbalari, o‘zlashish usullari, shuningdek, miqdoriga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

¹ Axmedov, Sh.I. (2021). Arab tilining shakllanishi va unda neologizmlarning o‘rni. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(5), B – 843.

² <https://en.wikipedia.org/wiki/Neologism>



Mumtoz, ya'ni klassik davr qatlami to'liq o'zlashib bo'lgan va assimilyatsiyalashgan, til tizimidan muqim joy egallagan so'zlardan iborat bo'lsa, Yevropa tillaridan hozirgi davrda o'zlashtirilgan atamalar tilning leksik-semantik tizimi tomonidan butkul o'zlashtirilgan va assimilyatsiyalashgan deb bo'lmaydi. Avvalgi o'zlashgan klassik so'zlar zamonaviy o'zlashmalar qatlamiga qarshi turadi. Klassik o'zlashmalarda davomli assimilyatsiya va iste'mol jarayonining tugallangan natijasi namoyon bo'lsa, zamonaviy so'zlarda davom etib taraqqiy qilib borayotgan jarayonni ko'rishimiz mumkin.

O'zga tillarga oid atamalar arab tiliga uning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida kirib kelgan. Mumtoz arab tilidagi o'zga tildan olingan lug'aviy boyliklar asosan mumtoz davrda (IX-XI asr) qabul qilingan bo'lib, asosan, fors, yunon va boshqa tillardan olingan va dehqonchilik, hunarmandchilik, maishiy turmush, moddiy madaniyat, falsafa, ilm-fanga oid, hayvonot va o'simliklar dunyosining turli ko'rinish va hodisalar nomini anglatgan to'liq o'zlashtirilgan so'zlardan iborat bo'lgan³.

Yevropa tillariga oid atamalar esa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida katta miqdorda o'zlashtirila boshlandi. Bu jarayon aksariyat arab davlatlarining Yevropa mamlakatlari tomonidan bosib olinishi bilan bog'liq bo'lib, ular harbiy qo'shin va ma'muriy boshqaruvdan tashqari yevropacha madaniyat ko'rinishlarini ham olib keldilar⁴.

Kolonial bosqinchilik davrining boshlanishi arab tilining o'zga tillar hisobiga boyish xususiyatiga ham o'zgartirish kiritdi. Suriya, Livan, Tunis, Jazoir va Marokash fransuzlar, Iroq va Sudan inglizlar, Liviya esa italyanlar hukmronligi ostida qoldi. Natijada har bir mamlakat yoki mintaqa o'zlashgan so'zlar bilan boyish uchun o'zgacha alohida manbaga ega bo'ldi.

Shuningdek, ushbu so'zlarning sohalariga ko'ra farqlanishi ham qayd etiladi. Masalan, "Tunis aholisi italyan tilidan baliqchilik, savdo va moliya" sohalariga,

³ Қодиров Т.Ш., Алиев Д.И. Араб тили лексикологияси. — Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2010. — Б.62.

⁴ Белкин В.М. Арабская лексикология М.1975 с.114-116



Liviya xalqi tiliga esa ma'muriy boshqaruv, hunarmandchilik va madaniy turmushga oid atamalar kirib bordi⁵.

“Arab tilining Misr lahjasiga esa juda ko‘p miqdordagi geografiya va tabiatga oid atamalar kirib kelgan”⁶.

Arab tilidagi zamonaviy o‘zlashgan atamalarning katta qismi fransuz tilidan kirib kelgan. Bunda xalqaro munosabatlar sohasiga fransuz tilining millatlararo muomala tili bo‘lganligi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Turli sohalarga oid quyidagi misollar ham fransuz tilidan olingan.

1. Texnologiya va media

Fransuzcha	Arabcha	Ma'no
Télévision	تلفزيون	Oynayi jahon (Televizor)
Téléphone	تليفون	Uyali aloqa vositasi (Telefon)
Radio	راديو	Radio
Cinéma	سينما	Kinoteatr

2. Ilmiy va professional darajalar

Fransuzcha	Arabcha	Ma'no
Doctorat	دكتوراه	Doktorontura
Diplôme	دبلوم	Diplom
Baccalauréat	بكالوريا	Bakalavr bosqichi
Professeur	بروفيسور	Professor

3. Zamonaviy infratuzilmalar.

Fransuzcha	Arabcha	Ma'no
Moteur	موتور	Motor, dvigatel
Ascenseur	أسانسير	Lift

⁵ الرمدي، صالح الترجمة من حيث هي عامل هام من عوامل العدوي اللغوية في العلاقات بين اللغة العربية و اللغة الفرنسية

⁶ <http://www.membrana.ru/horm/artikles>



Décor	ديكور	Bezak, bezash
-------	-------	---------------

4. Kiyim – kechak va to‘qimachilik.

Fransuzcha	Arabcha	Ma’no
Pantalon	بنطلون	Shalvar, shim
Modèle	موديل	Rusum, model
Jaquette	جاكيت	Ustki kiyim, jaket, pidjak

Arabshunos olim V.M. Belkinning ta’kidlashicha, “zamonaviy arab adabiy tilini o‘rganish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Yevropa tillaridan olingan o‘zlashma so‘zlarning umumiy miqdori u qadar ko‘p emas va lug‘at boyligining bir foiziga yaqin qisminigina tashkil qiladi”⁷.

Hozirda ham adabiy tilning leksik zaxirasi o‘zlashgan so‘zlar bilan boyishda davom etmoqda, chunki arab jamiyati o‘zga davlatlarning madaniyati, ilm-fani, texnika yutuqlari bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganib, aksar hollarda ularni atamalar sifatida qabul qilgan va ushbu hol zamonaviy arab atamashunoslik tizimi shakllanishida aks etadi.

Masalan:

Fransuzcha	Arabcha	Ma’no
Microscope	ميكروسكوب	Mikroskop
Plateforme	منصة / بلا تفورم	Platforma (raqamli, elektron)
Internet	إنترنت	Internet
Protocole	بروتوكول	Bitim, kelishuv, protokol
Stratégie	إستراتيجية	Strategiya
Logistique	لوجستيات	Tashkiliy ishlar, tashkillashtirish, uyushtirish, logistika

⁷ Белкин В.М. Арабская лексикология М.1975 с.114-116



Xulosa qilib aytganda, boy meros va ichki derivatsion imkoniyatlarga ega bo'lgan arab tili lug'at boyligida xorijiy tillardan, xususan, fransuz tilidan o'zlashgan neologizmlarning keng ko'lami mavjud bo'lib, bu o'zlashtirish jarayoni hozirgi kunda ham izchil davom etib kelmoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy arab tili leksik qatlamining boyishida G'arb tillaridan o'zlashgan, ayniqsa, madaniyat, texnika va maishiy turmush sohalariga oid atamalar muhim o'rin egallaydi. Ushbu neologizmlar nafaqat tilning terminologik bazasini boyitmoqda, balki globallashuv davrida arab dunyosining zamonaviy sivilizatsiya bilan lisoniy integratsiyalashuvini ham ta'minlamoqda. Garchi bu birliklar dastlab yot element sifatida kirib kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan arab tilining ichki qonuniyatlari asosida assimilyatsiyalashib, til tizimidan muqim joy egallab bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қодиров Т., Алиев Д. Араб тили лексикологияси. — Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2010. — 136 бет
2. Белкин В.М. Арабская лексикология. — М., 1975
3. الرمدي، صالح الترجمة من حيث هي عامل هام من عوامل العدوي اللغوية في العلاقات بين اللغة العربية و اللغة الفرنسية
4. Axmedov, Sh.I. (2021). Arab tilining shakllanishi va unda neologizmlarning o'rni. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 1(5), 843-bet
5. <https://en.wikipedia.org/wiki/Neologism>
6. <https://playing.com/arabic-and-french/>
7. <http://www.membrana.ru/horm/artikles>